

AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG‘ILISHINI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDAGI XABAR

“TBC Bank” ATB aksiyadorlar diqqatiga!

Kuzatuv Kengashining 2022 yil 29 aprel kuni qabul qilgan qaroriga ko‘ra, “TBC Bank” ATB Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi 2022 yil 27 may kuni soat 17:00 da **masofada turib video konferensiya aloqasi va evote.uz elektron ovoz berish tizimi orqali** ishtirok etish imkoniyati bilan o‘tkazilishi haqida ma’lum qiladi.

KUN TARTIBI:

1. “TBC Bank” ATB Kuzatuv Kengashining 2021 yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotini tasdiqlash.
2. “TBC Bank” ATBning 2021 yildagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yakunlari bo‘yicha “TBC Bank” ATB Taftish komissiyasining xulosasini tinglash.
3. “TBC Bank” ATBning 2021 yil uchun yillik hisobotini va MHXS (IFRS) hisobotini tasdiqlash.
4. “TBC Bank” ATB tashkiliy shaklini yangi tahrirda tasdiqlash.
5. “TBC Bank” ATB e‘lon qilingan aksiyalarining maksimal miqdorini aniqlash.
6. “TBC Bank” ATBning Ustavini yangi tahrirda tasdiqlash.
7. “TBC Bank” ATB aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi nizomini yangi tahrirda, “TBC Bank” ATB Kuzatuv Kengashi to‘g‘risida”gi nizomini yangi tahrirda, “TBC Bank” ATB Boshqaruvi to‘g‘risida”gi nizomini yangi tahrirda tasdiqlash, shuningdek, “TBC Bank” ATB ayrim nizomlarining o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish.
8. “TBC Bank” ATB Kuzatuv Kengashi a‘zolarini uch yil muddatga saylash.
9. “TBC Bank” ATB Boshqaruv Raisini uch yil muddatga saylash.

Joylashuvi (pochta manzili): O‘zbekiston Respublikasi, 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani Fidokor ko‘chasi, 10B-uy.

Elektron pochta manzili: contact@tbcbank.uz.

Majlis o‘tkaziladigan manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10B-uy, masofada turib video konferensiya aloqasi va evote.uz elektron ovoz berish tizimi orqali o‘tkazish imkoniyati bilan.

Aksiyadorlarning ro‘yxatdan o‘tish sanasi, vaqti va joyi: 27.05.2022 yil, soat 16:00 dan 17:00 gacha, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10B (masofada turib ishtirok etganda – evote.uz elektron ovoz berish tizimi orqali).

Ma’lumot uchun:

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun aksiyadorlar reestri 2022 yil 23 may holatiga ko‘ra shakllantirildi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida aksiyadorning vakili uning shaxsini tasdiqlovchi hujjat va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma taqdim etilgan holda ishtirok etishga, shuningdek, ovoz berish byulletenlari orqali yoki evote.uz elektron ovoz berish tizimidan foydalangan holda kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berishga haqli.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilish materiallari bilan quyidagi manzil bo‘yicha tanishishingiz mumkin: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10B yoki quyidagi elektron pochta manziliga so‘rov yuborishingiz mumkin.

Ma’lumot uchun telefon: (78) 777-27-27.

Boshqaruv Raisi

S. Tetrashvili